Kuyishga qarshi va yara bitkazuvchi vositani olish usuli ishlab chiqildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar ademiyasi akademik S.Yu.Yunusov nomidagi O’simlik moddalari kimyosi instituti tomonidan kuyishga qarshi va yara bitkazuvchi vositani olish usuli ishlab chiqildi va O’zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi patenti olindi.

Kuyishga qarshi va yara bitkazuvchi vosita maydalangan o’simlik xom-ashyosini eritgich - benzin yoki geksanda ekstraktsiya qilish, filtrdan o’tkazish va eritgichni bug’lantirish yo’li bilan olinadi.

Yara bitkazuvchi vosita quyidagi jihati bilan farqlanadi: o’simlik xom-ashyosi sifatida mos ravishda 2,5-1:1:1 massa nisbatida olingan na’matak mevalari (Rosa canina L.), kunjut urug’i (Sesamum indicum L.), garmalaning yerusti qismi (Peganum harmala L.) va zizifora (Ziziphora pedicellata Pazij et Vved) qo’llanadi, benzin yoki geksan bilan ekstraktsiyalash Sokslet sistemasida 60-78°C haroratda hamda xom-ashyo: eritgichning 1:15 massa nisbatida 8-10 marta o’tkaziladi keyin ekstrakt tabiiy lipidli moddalar miqdori 30-35 foizga yetgunicha kontsentratsiya qilinadi.